



THE USE OF COMPOUND VERBS IN THE DISTANT STATE IN THE WORK "GULISTON"

Mukhtarjon Umarovich Amonov

Associate Professor

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

Olimjon F. Turdaliyev

PhD student

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: compound verb, contact case, distant case, morphological indicator, word combination, word combination chain.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: Verbs differ from other groups of words in that they have different complex forms. One of the most common analytical forms in verbs are compound verbs. This linguistic unit is divided into two according to the situation of use in the context: compound verbs in the contact state and compound verbs in the remote state. This article, based on materials from the work "Gulistan" explains the linguistic functions of compound verbs in frame position.

"GULISTON" ASARIDA QO'SHMA FE'LLARNINGDISTANT HOLATDA QO'LLANILISHI

Muxtorjon Umarovich Amonov

dotsent

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

Olimjon F. Turdaliyev

tayanch doktorant

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qo'shma fe'l, kontakt holat, distant holat, morfologik ko'rsatkich, so'z birikmasi, so'z birikmasi zanjiri.

Annotatsiya: Fe'l turkumi xilma-xil murakkab shakllarga ega ekanligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Fe'l turkumida keng tarqalgan analitik shakllardan

biri qo'shma fe'llardir. Mazkur til birligi kontekstda qo'llanish holatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: kontakt holatda keluvchi qo'shma fe'llar va distant holatda keluvchi qo'shma fe'llar. Ushbu maqolada distant holatda keluvchi qo'shma fe'llarning lisoniy funksiyalari "Guliston" asari materiallari asosida yoritiladi.

УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОЖНЫХ ГЛАГОЛОВ В ДИСТАНЦИОННОМ СОСТОЯНИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ГУЛИСТОН»

Мухтарджон Умарович Амонов

Доцент

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

Олимжон Ф. Турдалиев

Базовый докторант

ФГУ

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сложный глагол, контактный падеж, дальний падеж, морфологический показатель, словосочетание, цепочка словосочетаний.

Аннотация: Глаголы отличается от других групп слов тем, что имеет различные сложные формы. Одной из наиболее распространенных аналитических форм в глаголах являются сложные глаголы. Данная языковая единица делится на две по ситуации употребления в контексте: сложные глаголы в контактном состоянии и сложные глаголы в рамочной конструкции. В данной статье на основе материалов произведения «Гулистан» поясняются лингвистические функции сложных глаголов в рамочной конструкции.

KIRISH

Fors tilida qo'shma fe'llarning morfologik tabiati juda murakkabdir. Uning murakkabligini murakkab grammatik analitik shakllarga o'xshashligi, fe'lli erkin birikmalarga shakl jihatdan juda yaqin turishi, ism va fe'l qismlarining distant hamda o'rin almashgan holatda kela olishi va boshqa xususiyatlar namoyon qiladi. Xususan, rus tilshunosi A.K.Arendsning ishlarida asosiy e'tibor qo'shma fe'llarning grammatik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Uning fikricha, qo'shma fe'llarda ism qism osonlik bilan ko'plik va noaniqlik shaklini oladi, ba'zan aniqlovchilarning guruh bo'lib kelishi natijasida ism va fe'l qism orasida katta oraliq masofa hosil bo'ladi, bunda ism va fe'l qism o'rtasidagi sintaktik aloqa va yordamchi fe'lning o'z ma'nosini yangidan to'liq tiklanadi [1, c. 34]. Keyinchalik boshqa bir rus tilshunosi Y.A. Rubinchik tomonidan qo'shma

fe'llarda ism qism ba'zan morfologik ko'rsatkichlar qabul qilishi, she'riy matnlarda ritm va vazn talabi bilan inversiyaga uchrashi, qismlarining distant holatda ham kelishi mumkinligi kabi masalalar ta'kidlangan[2, c.116]. Qo'shma so'z qismlarining distant holatda kela olishi faqatgina fe'l turkumida – qo'shma fe'llarda mavjuddir. Sifat, ot, ravish, olmosh va son turkumlaridagi qo'shma so'zlarda qismlarning distant holati kuzatilmaydi. Qo'shma fe'llarning mazkur lisoniy xususiyati "Guliston" matnida ham mazkur holat ko'p uchraydi. Ba'zi qo'shma fe'llar ham distant, ham kontakt holatda kela oladi. Aksariyat o'rinlarda kontakt holatda keluvchi fe'llarning distant ko'rinishda qo'llanilishi stilistik funksiya bajaradi.

ASOSIY QISM

"Guliston" asarida qo'llanilgan qo'shma fe'llarning ism va fe'l qismi orasida turli gap bo'laklari kelishim mumkin. Ularni tuzilishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Qo'shma fe'llarning ism va fe'l qismi orasida sodda gap bo'laklarining kelishi. Aksariyat o'rinlarda mazkur bo'lak vositali to'ldiruvchi funksiyasida keladi:

چو آهنگ رفتن کند جان پاک

چه بر تخت مردن و چه بر روی خاک

Ču āhang-e raftan konad jān-e pāk,

Če bar taxt mordan wače bar ru-ye xāk. (G. 50-bet).

Baytning tarjiması: *Jon tanani tark etishga mayl qilgan onda, taxtning ustida o'lding, nima-yu, tuproqning ustida o'lding, nima?*

Yuqoridagi jumladainfinitiv shakldagi sodda fe'l رفتن (raftan-bormoq, ketmoq)ning qo'shma fe'l qismlari orasida kelganini ko'rish mumkin. Bunda qo'shma fe'lning ism qismi رفتن (raftan) sodda fe'li bilan izofa yordamida grammatik aloqaga kirishgan.

Qo'shma fe'llarning ism va fe'l qismi orasida turli so'z turkumlariga mansub bo'lgan leksik birliklar kirib qolishi mumkin. Xususan quyidagi baytda sifat turkumiga mansub so'zning ishlatilishi kuzatiladi:

نیک و بد چون همی بباید مرد

خن آنکس که گوی نیکی برد

Nik wa bad čun hami bebāyad mord

Xong ān kas ke guy-e niki bord. (G. 20-bet)

Baytning mazmuni: *Yaxshi ham, yomon ham vafot etadi, yaxshi so'z aytgan odam baxtlidir.*

"Guliston" asarida "arabiy o'zlashma+forsiy yordamchi fe'l" modelidagi qo'shma fe'l qismlarining ham distant holatda ishlatilishi uchraydi. Quyidagi jumlada maf'ul bobiga mansub *maqbulāmadan* fe'lining tarkibiy qismlari distant holatda qo'llangan:

فی الجملة مقبول نظر سلطان آمد که جمال صورت و معنی داشت.

Filjomle, maqbul-e nazar-e soltān āmad ke, jamāl-e surat wa ma'ni dāšt.(G. 66-bet).

Tarjimasi: *Xullas, botiniy va zohiriy go'zalligi bor ekanligi podshohga xush keldi.*

“Guliston” matnidagi qismlari distant holatda kelgan qo'shma fe'llarni grammatik bog'lanishi jihatidan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. **Ism qismi izofa qabul qilgan qo'shma fe'llar.** Mazkur holatda qo'shma fe'lining ism qismi o'zidan keyin keluvchi lisoniy birlik bilan izofa yordamida bog'lanadi.

طایفه حکماء هندوستان در فضایل بزرجمهر سخن می گفتند بآخر جز این عیبش ندانستند که در سخن بطی است
یعنی درنگ بسیار میکند.

*Tāife-yehukamā-yeHendustāndarfazāyel-eBozorjmehrsoxanmigoftand. Bāāxer joz in eybaš
nadānestandke dar soxan botist wa derang-e bisyār mikonad.*(G. 37-bet)

Hindiston hakimlarining bir toifasi Bo'zo'rymehrning fazilatlarini haqida so'z yuritardilar.

Va oxir bundan o'zga aybini bilishmadiki, so'zlashda kutturuvchi edi va ko'p to'xtalish qilardi.

2. **Ism qismi izofa qabul qilmagan qo'shma fe'llar.**“Guliston” matnida qo'shma fe'l qismlarining o'rin almashinib, distant holatda kelganligini ham kuzatish mumkin. Bu holat asosan ritm talabi bilan she'riy matnlarda uchraydi:

مگر صاحب دلی روزی برحمت
کند در کار درویشان دعائی

Magar sāhebdeli ruzi berahmat,

Konad dar kār-e darwišān duāyi.

Baytning mazmuni: *Agar bir orif bir kuni rahmat yuzasidan darvishlarning ishi uchun duo qilsa...*

Yuqoridagi baytda kelgan (duā kardan –duo qilmoq) fe'lining jumla tarkibida ism va fe'l qismining o'rin almashgan holda kelganini ko'rish mumkin. Shuningdek, mazkur fe'lining ism qismi grammatik ko'rsatkich – noaniqlik yosini qabul qilgan holda kelgan: کند دعائی

Ba'zi o'rinlarda از (az) predlogi bilan keluvchi qo'shma fe'llarning qismlari distant vao'rni almashgan holda qo'llanilishi ham kuzatiladi. Bu asosan baytning vazn talabi bilan yuzaga chiqadi:

خوی بد در طبیعتی که نشست
ندهد جز بوقت مرگ از دست.

Xuy-e bad dar tabiatike nešast,

Nadehad joz bewayt-e marg az dast.(G. 229-bet).

Mazmuni: *Agar yomon bir fe'l kishining tabiatida o'rnashadigan bo'lsa, o'limdan o'zga vaqtda chiqib ketmaydi.*

Az dast dādan fe'lining lug'atlarda “boy bermoq”, “yutqazmoq”ma'nolari keltiriladi.

“Guliston” asarida somatik birliklar ishtirokida yasalgan qo'shma fe'llarning ham distant holatda kelishi kuzatiladi. Xususan, asarda روی (ruy) so'zi bilan yasalgan qo'shma fe'llar 23

o‘rinda uchraydi. Ularning aksariyati distant holatda qo‘llanganini qildi. Asarni o‘rganish davomida shu narsa ayonlashdiki, *ruy so‘zi+fe‘l* modelidagi qo‘shma fe‘llar distant holatda ko‘p o‘rinlarda az predlogli to‘ldiruvchilarni boshqarib kelgan:

Ruy gardānidan (1. Yuz o‘girmoq. 2. Tark etmoq)[3, c. 734].

روی از محاوره او گردانیدن مروت ندانستم که یار موافق بود و ارادت صادق.

Ruy az mahāware-ye u gardānidan moruwat nadānestamke, yār-e mowāfey bud wa erādat-e sādey.

Tarjimasi: *Uning suhbatini rad etishni muruvvat bilmadimki, sodiq va vafoli do‘st edi.*

Ruy tāftan (1. Xo‘mraymoq 2. Yuz o‘girmoq. 3. Umid uzmoq) [3, c. 734].

از طبیعت بزرگان بدیع است روی از مصاحبت مسکنان تافتن و فایده و برکت دریغ داشتن...

Az tabiat-e bozorgān badiye ast ruy az mosāhebat-e meskinān tāftan wa fāyde wa barakat dariy dāstan. (G. 148-bet).

Tarjimasi: *Miskinlarning suhbatidan yuz o‘girish va ulardan foyda va barakatni darig‘ tutish ulug‘larning tabiatidan uzoqdur.*

Ba‘zi o‘rinlardamodal fe‘llar ham qo‘shma fe‘llarning qismlari orasiga kirib qolishi kuzatiladi. Quyidagi baytda qo‘shma fe‘lning ism va fe‘l qismlari orasida bāyestan (bāyestan) modal fe‘li qo‘llangan:

هر که مزروع خود بخورد

وقت خرمنش خوشه باید چید

Harke mazra‘-ye xud bexorad,

Wayt-e xermanaš xušē bāyad čid. (G. 21-bet).

Baytning mazmuni: *Ekan narsasini xom paytida yegan har kimsa, hosil yig‘iladigan payt boshqo‘q terishiga to‘g‘ri keladi.*

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qo‘shma fe‘llarning distant holatda qo‘llanilishi bir tomondan kontekstning stilistik xususiyatlari, ikkinchi tomondan esa bu asar yaratilgan davrning til vaziyati, uslubi hamda yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati va individual uslubi bilan ham bog‘liq masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Арендс А.К. Краткий синтаксис современного персидского литературного языка. – Л: Академ.наук, 1941. – 189с.
2. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии современного персидского языка. – М.: Наука, 1981. – 276с.
3. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. Том 1. – М.: Русский язык, 1983. – 800с.